

O'RTA OSIYODAGI BIRINCHI UYG'ONISH DAVRI  
YEVROPASENTRIZM VA OSIYOSENTRIZM KONTEKSTIDA

*Azimov Muhammadi Azim o'g'li*

*Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti magistranti*

*Email: muhammagistr@gmail.com*

*Telefon raqam: +998973268418*

**ANNOTATASIYA**

Maqolaning qisqacha mazmuni insoniyot taraqqiyotida ro'y bergan renessans davri, uning vujudga kelishida mintaqalarning o'zigo xos o'rni va tarixiy manbaalarda obyektiv o'rganilishidan iborat. Shuningdek, unda jahon sivilizatsiyalarining uyg'onish davriga ta'siri hamda ilmiy-madaniy inqiloblarda mutafakkirlarning e'tirof etilishini tarixiylik kontekstda ko'rib chiqadi.

**Kalit so'zlari:** renessans, yevropasentrizm, sharqshunoslik, O'rta Osiyo madaniyati, birinchi uyg'onish davri, Osiyosentrizm tarixni subyektiv va obyektiv yoritish.

THE FIRST RENAISSANCE IN CENTRAL ASIA IN THE CONTEXT OF  
EUROPACENTIRISM AND ASIACENTRISM

Azimov Mohammadi Azim oglu

Graduate student of Tashkent State University of Oriental Studies

**ANNOTATION**

The brief content of the article consists of an objective study of the renaissance period in the development of humanity, the specific role of regions in its creation, and historical sources. It also examines the influence of world civilizations on the renaissance period and the recognition of thinkers in scientific and cultural revolutions in the context of historicity.

**Key words:** renaissance, Eurocentrism, oriental studies, Central Asian culture, the first renaissance period, Asiacentrism subjective and objective coverage of history.

ПЕРВЫЙ РЕНЕССАНС В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В КОНТЕКСТЕ  
ЕВРОПАЦЕНТРИЗМА И АЗИАЦЕНТРИЗМА

Азимов Мухаммади Азим оглы

Аспирант Ташкентского государственного университета востоковедения

**АННОТАЦИЯ**

Краткое содержание статьи состоит из объективного исследования периода

Возрождения в развитии человечества, специфической роли регионов в его создании и исторических источников. Также рассматривается влияние мировых цивилизаций на период Возрождения и признание мыслителями научных и культурных революций в контексте историчности.

**Ключевые слова:** ренессанс, европоцентризм, востоковедение, среднеазиатская культура, первый период Возрождения, азиатизм, субъективное и объективное освещение истории.

Tarixda renessans atamasining vujudga kelishi va uni mintaqalar bo'yicha taqsimoti bilan bog'liq turli xil yondashuvlar hamda qarashlar mavjud. Sababi, ushbu lug'aviy tushunchaning vujudga kelishidan oldin ham uning xususiyatlari o'zini ko'plab sivilizatsiyalarda namoyon qilgan. Ushbu atama dastlab XIV-XVI asrlarda Yevropa davlatlaridagi rivojlanishning takrorlanmas ko'rinishini aks etgan va unga "Renessans (frans, reinter – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ulmoq) uyg'onish davri"<sup>1</sup> ni ifodalaydi. Bu jarayon O'rta Osiyoda ham ro'y bergan bo'lib, o'lkada "Birichi uyg'onish davri" IX-XII asrlarni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda O'rta Osiyo hududida aholining madaniyati, dunyoqarashi va jamiyatga bo'lgan munosabati yetuk allomalarning amaliy hamda nazariy qo'llanmalari tufayli tubdan o'zgardi.

Ko'plab tadqiqotchi olimlar Mavronnahir allomalari ushbu bilimlarni o'rganishida arab mintaqasidagi yirik ilmiy markazlarning o'rni beqiyosligini mutloqlashtiradi. Mohiyatidan olib qaraganda bu fikirni inkor etib bo'lmaydi. Lekin, o'sha davrda O'rta Osiyoda ham o'ziga xos madaniy-ilmiy muhit shakillanib ulgurgan edi. "Ovropalik ba'zi tadqiqotchilar Markaziy Osiyodan chiqqan olimlar faqat Damashq va Bag'dodda ta'lim olib yetishdilar, degan fikirni olg'a suradilar"<sup>2</sup>. Mahalliy va yevropalik tarixchilarning asosiy qismi bu fikirni yoqlashadi. Buni o'sha paytdagi "Bayt ul-hikma" ning xalifalikda mavqe'yi yuqoriligi va u yerda xorijning nodir qo'lyazmalari tarjima qilinganligi bilan ham izohlash mumkin. Ammo, "uyg'onish davri" uchun ta'rif va tavsiflar mintaqa olimlari tomonida turli xil yondashuvni keltirib chiqargan uni shartli asosda yevropasentrizm va osiyosentrizmga bo'lish mumkin. Bunda ikki mintaqa vakillari ham renessansning vujudga kelishida o'ziga xos fikirlarga ega. "Yevropasentrizm odatda G'arbdan tashqari jamiyatlarning tarixi va madaniyatiga Yevropa yoki G'arb nuqtai nazaridan qaraydigan madaniy hodisa sifatida ta'riflanadi"<sup>3</sup>. Yevropasentrizm tarafdorlari Osiyodagi uyg'onish davrining ahamiyatini kamaytirishga harakat qilishadi va ushbu jarayonda yevropaning ustunligini mutloqlashtirishadi. Lekin, bu nuqta'yi nazar barcha yevropa tarixchilariga aloqador emas. Chunki, ushbu qarash o'zida ko'proq subyektivlikni aks ettiradi hamda

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy insiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. – 2013. B – 155.

<sup>2</sup> F. Sulaymonova. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston. – 1997. B – 206.

<sup>3</sup> A.K. Pokhrel. (2011). Eurocentrism. In: Chatterjee, D.K. Encyclopedia of Global Justice. Springer, Dordrecht. <https://doi.org/10.1007/978-1-4020-9160-525>.

tarix faniga bo‘lgan haqqoniylik prinsipining yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun ham uni barcha g‘arb olimlari ham yoqlamaydi. Ulardan biri S.Fridrix Sharq uyg‘onish davri haqida shunday deydi. “800—1200-yillar oralig‘ida O‘rta Osiyo savdo-iqtisodiy taraqqiyot, shaharlarining katta-kichikligi va nafosatligi, san‘atining nafisligi va eng avvalo, ko‘plab sohalardagi bilimlarning yuksalishi bo‘yicha dunyoda yetakchilik qilgani haqida hikoya qiladi. Markaziy osiyoliklar astronomiya, matematika, geologiya, tibbiyot, kimyo, musiqa, ijtimoiy fanlar, falsafa va ilohiyot va boshqa fanlarda signalli yutuqlarga erishdilar”<sup>4</sup>. Albatta, u bu ta‘rifni bejizga eslatib o‘tmagan. Sababi, o‘sha paytda sharqda ijtimoiy hayotning misilsiz ilmiy kashfiyotlari va hali hech kimga ma‘lum bo‘lmagan nazariyalarni paydo bo‘lishi o‘rta asr ilm-fanida ulkan yutuqlardan edi.

IX-XII asrlardagi uyg‘onish davri haqida gap ketganda g‘arb olimlarining aksariyat qismida uni arab yoxud fors sivilizatsiyasining sarchashmasi deya yanglish tushunchalar uchraydi. “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ajoyib yutuqlariga qaramay, G‘arbda ko‘pchilik bu tarixdan bexabar. O‘sha davrning ko‘plab buyuk madaniyat va intellektual arboblari boshqa sivilizatsiyalarga mansub deb noto‘g‘ri ta‘riflangan. Starr ta‘kidlaganidek, u tilga olgan asarlarning ko‘p qismi arab yoki fors tillarida yozilgan va ularning mualliflari ko‘pincha arablar yoki forslar deb noto‘g‘ri talqin qilingan”<sup>5</sup>. O‘rta Osiyodagi uyg‘onish davrini yevropadagi renessansga qiyoslovchi tarixchilar ikkala davrdagi kamchilik va yutuqlarni o‘z ilmiy tadqiqotlarida asosli tarzda bayon qilishgan. Unga ko‘ra, asosiy farq sinflar va siyosiy institutlarning faoliyatida kuzatiladi. Yevropadan farqli o‘laroq O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi parokandalik va ijtimoiy parchalanishdan holi edi. “Markaziy Osiyo bu jihatdan tanazzulga uchramagan mintaqadir va shuning uchun bo‘lsa kerak, islom sivilizatsiyasi qulashi davrida ushbu mintaqa muhim rol o‘ynadi va markazni qayta tikladi”<sup>6</sup>. Ya‘ni, aynan arab xalifaligi har tamonlama zaiflashganda O‘rta Osiyo allomalari bu jarayonni mo‘tadillashtira olishdi. Endilkda, musulmon sharqi va g‘arbida ijtimoiy rivojlanishga bo‘lgan shart-sharoitlar yaratildi. Ba‘zi g‘arb tarixchilari buni inkor etishsada shaharlarning funksiyanal vazifasi va mavqeyi ham bir qadar ortdi deyish mumkin. “Somoniyar sulolasi davrida Buxoro 200 yildan ortiq, milodiy 800-yillardan 1000-yillargacha Islomning madaniy poytaxti sifatida Bag‘dod bilan raqobatlasha boshladi”<sup>7</sup>. Bu sharq uyg‘onish davrida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining o‘rni beqiyos ekanligining yana bir dalilidir.

Yevropa va boshqa mintaqalarda “Sharq uyg‘onishi” ning tamol toshlari

<sup>4</sup> S. Frederick. Lost enlightenment : Central Asia’s golden age from the Arab conquest to Tamerlane. Published by Princeton University Press, 2013. P-227.

<sup>5</sup> Markian Dobczansky. Central Asia's Golden Age (800&#8211;1100): Why it Happened, Why it Ended.

<sup>6</sup> Faruk Mercan. The New Renaissance of Islam and Central Asia. October 6, 2021.

<sup>7</sup> B. Thomas. Great Empires of Central Asia, Part 5: The Eastern Renaissance. Posted in History on December 9, 2017.

faqatgina arablar tomonidan qo'yilgan degan tushunchalar keng tarqalgan. Bunga sabab arab xalifaligi sarhadlarida til va davlat siyosatining ustuvorligi va ilm arboblarning katta qismi markaziy dargohlarda tehsil olgan degan qarash ustun bo'lgan. Tarixni obyektiv tarzda yoritishga intilgan olimlar buning asl mohiyatini tushuntirishga harakat qilishgan. Shunday tadqiqotchilar sirasiga Fridrix Starni ham kiritish mumkin. U Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining mohiyatini o'zgacha baholaydi va mintaqa olimlari haqida quyidagi fikirlarni ilgari suradi. "Bu shaxslarning deyarli barchasi arab tilida yozganligi sababli, ular uzoq vaqtdan beri arablar deb taxmin qilingan. Aslida, ular Markaziy Osiyodan bo'lgan - bugungi kunda Qozog'istondan janubga Afg'oniston orqali va Eronning eng sharqiy viloyatidan Shinjon (Xitoy) orqali cho'zilgan mintaqadagi fors va turkiy xalqlardan bo'lgan"<sup>8</sup>. Birinchi ug'onish davrida Mavronnahir hududida yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy va Imom Buxoriylarning ijod namunalari arab tilida bitilgan bo'lib, ulardan yevropaliklar XVII asrga qadar foydalanib kelishgan. Harchand, yevropasentrizm vakillari Markaziy Osiyo uyg'onish davri yutuqlarini inkor etishsada, uning to'liqini ga'rbdagi renessans davriga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Yevropasentrizmga qarshi yo'nalish sifatida Osiyosentrizm mafkurasi ham shakillangan bo'lib, o'zida asosan iqtisodiy va ijtimoiy tarqqiyotning o'lchamlarini belgilashga harakat qiladi. Ushbu qarashni hatto yevropa olimlari ham qo'llab quvvatlaydi. Ular yevropa taraqqiyotida sharqning o'rni alohida ekanligini takidlashadi. Sharq va G'arbni ayro xolda tassavur etib bo'lmasligini E. Said ham ta'kidlab o'tgan. "Sharq Yevropa moddiy sivilizatsiyasi va madaniyatining ajralmas qismidir. Sharqshunoslik bu qismni madaniy va hatto mafkuraviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi institutlar, lug'at, ilm-fan, tasvirlar, ta'limotlar, hatto mustamlaka buyrokratiyasi va mustamlaka uslublariga ham imkon bergan"<sup>9</sup>. Ya'ni, yevropaliklar osiyoliklardan siyosiy va ijtimoiy yutuqlarni transfarmatsiya qilishgan. Bu yutuqlarning aksariyati hozirda yevropaliklar kashfiyoti sifatida tan olingan. Shunday bo'lsada, Markaziy Osiyoning oltin asrida ijod qilgan allomalarning turli xil fan sohalaridagi kashfiyot va qo'llanmalari jahon ommasi tamonidan tan olingan va ular haligacha e'tirof etiladi. Ayniqsa, tabobat borasidagi erishilgan natijalar hali hanuz bizni lol qoldirmoqda. "Islom tabiblari va olimlari Galen va Gippokrat, shuningdek, Iskandariyadagi (Misr) yunon olimlaridan kuchli ta'sirlangan. Islom ulamolari o'zlarining katta hajmli asarlarini yunon tilidan arab tiliga tarjima qildilar va keyin bu matnlar asosida yangi tibbiy bilimlarni yaratdilar"<sup>10</sup>. Aslida, yevropaliklar erishgan

<sup>8</sup> S. Frederick. *Lost enlightenment : Central Asia's golden age from the Arab conquest to Tamerlane*. Published by Princeton University Press, 2013. P-400.

<sup>9</sup> E. W. Said. *Orientalism*. Vintage Books A Division of Random House. New York. 1978. P – 2.

<sup>10</sup> M. D. Rachel Hajar. *The Air of History Part III: The Golden Age in Arab Islamic Medicine An Introduction*. Heart Views. 2013 Jan-Mar; 14(1): 43–46.

bugungi kun yutuqlari qaysidir ma'noda sharq olimlari yaratgan fan nazariyalaridan kuch olganini tarix unutmagan emas.

Markaziy Osiyodagi birinchi uyg'onish davrini e'tirof etishda g'arb va sharq o'rtasida kuchli qarama qarshilik va tafovutlar mavjud. Bu gohida sivilizatsiyalarning qiymati yuqoriligi hamda ular yaratgan yutuqlar bilan o'lchanadi. Tarixchilarning tahlil va xulosalariga ko'ra, yevropasentriзмdan farqli o'laroq osiyosentriзм jamiyatning ijtimoiy tuzulmalarining rivojlanishini g'arb bilan taqqoslab uni ustun yoxud kamchiliklarini qidirishdan yiroq hisoblanadi. Chunki, sharqda yaratilgan barcha diniy, falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarning o'zi sharq renessansi qanday kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. "Taxminan sakkizinchi asrdan o'n uchinchi asrgacha bo'lgan ushbu Oltin asr bilan tanish bo'lgan har bir kishi uchun Yaqin Sharqning o'sha paytdagi va hozirgi intellektual yutuqlari o'rtasidagi tafovut, ayniqsa dunyoning qolgan qismiga nisbatan hayratlanarli"<sup>11</sup>. Albatta, buning o'ziga xos sabablari bor edi. Birinchidan, uyg'onish davrining debochasi aynan shu mintaqa hududida kurtak otgan va bu o'zgarishlar boshqa sivilizatsiyalar rivijlanishi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchidan, ular yaratgan ilmiy kashfiyotlarning aksariyat qismi innavatsiyon xarakterga ega edi. Ya'ni, avval mavjud bo'lmagan va fan nuqta'yi nazaridan olamshumul ixtirolar bo'lgan.

Sharq uyg'onish davri olimlari yaratgan ilmiy me'roslar aniqligi va hozirgi davr o'lchamlariga mosligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi va buni matematika fanidagi formulalarni vujudga kelishida ham ko'rishimiz mumkin. "Al-Xorazmiyning yondashuvi tizimli va mantiqiy edi; u o'sha davrda fanning turli sohalari bo'yicha mavjud bo'lgan bilimlarni birlashtiribgina qolmay, balki o'zining asl hissasi bilan ham boyitdi"<sup>12</sup>. Buni bugungi kunda g'arb va sharq olimlari xohlaydimi yoki yo'q asosli tarzda tan olishadi. Ammo, aksariyat manbaalar va risolalarda islom sivilizatsiyasida arab xalqalarining o'ri beqiyos degan bir tomonlama yondashuv mavjud. Chunki, xalifalik sarhadlarida ijod qilgan olimlarning barchasiga umumiy arab mutafakirralari deya nom berishgan. Bunga sabab, ular ijod qilgan makon va til arablarga qarashli bo'lgan. Vaholanki, bu sarhadlarda arablardan tashqari turkiylar, forslar va boshqa turli tuman xalqalardan yetishib chiqqan olimlar mavjud bo'lgan. Ularning barchasi Sharq va islom sivilizatsiyasida alohida o'ringa ega. "Islom olamidagi fanlar hamisha metafizika va ma'naviyatga mustahkam o'rinishib, ilm va din o'rtasidagi har qanday jarlikdan qochgan, islom sivilizatsiyalari mumtoz va zamonaviy ilmiy tafakkurga katta hissa qo'shgan"<sup>13</sup>. Ya'ni, g'arbdan farqli o'laroq Sharqdagi uyg'onish davri ham islom

<sup>11</sup> Hillel Ofek. "Why the Arabic World Turned Away from Science," *The New Atlantis*, Number 30, Winter 2011, pp. 3-23

<sup>12</sup> M. Azab, R. Kandil. *The Golden Age of Islam: Glimpses of Scientific Discovery and Invention* (Khwarazm – Baghdad – Kufa). 19 April 2022.

<sup>13</sup> A. Anwar. *Celebrating the contributions of the Islamic world to natural sciences*. Babraham Institute. 26 April, 2023.

dini ham jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilgan. Gʻarbda esa bu jarayon ayniqsa cherkov rad etgan olam haqidagi qarashlarni yoqlagan olimlarning taqdiri ayanchli yakunga ega. Shunday boʻlsada, ular doimo jasorat va oliyjanoblik namunasi sifatida uzoq asrlar davomida millatlar qalbida yashaydi. “Oʻrta asrlarda astronomiya sohasidagi ilmiy kashfiyotlari uchun tazyiq va taʼqiblariga uchragan Nikolay Kopernik hamda keyinchalik uning izidan borib, johil va aqidaparast ruhoniylar tomonidan oʻtga tashlangan Jordano Bruno, qanchadan-qancha taʼna va malomatlariga giriftor etilgan Galileo Galiley kabi allomalarning jasoratida ham haqiqatga sadoqat, eʼtiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon boʻlganini koʻramiz”<sup>14</sup>. Afsuski, bunday favqulotda noyob bilim egalari gʻarbda kuchli tazyiqqa uchragan va bu yevropa uygʻonish davrining oʻziga xosligini ifodalaydi. Bu davrda osiyodagi olimlar hukumat va islom dini rahnamolari tomonidan qoʻllab quvvatlangan. Ushbu davrda eʼtirofga molik fan inqiloblari roʻy bergan va buni qayta yaratish hamda takrorlashga hozirgi zamon olimlari ham qodir emas.

Bugungi kunda sanoq tizimi va raqamli texnologiyalarning vujudga kelishida Markaziy Osiyo olimlaridan Al-Xorazmiy va uning algoritmi zamonaviy fan olimlari diqqat markazida. “Matematik fanlar sohasi islomning oltin davridan juda katta qarzdor. Oltin asr musulmon matematiklarining tarixiy yutuqlari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy tomonidan algebra va algoritmlarning ishlanmalari, sferik trigonometriyasi nodir qoʻllanmalardan biridir”<sup>15</sup>.

Umuman olganda, Markaziy Osiyodagi birinchi uygʻonish davri va uning mintaqalar kesimida oʻrganilishi, eʼtirof etilishi va tan olinishi muhim ahamiyatga ega. Sababi, xar bir millatda shakillanadigan milliy gʻurur, iftixor va ajdodlar meʼrosiga boʻlgan eʼtibor aynan tarixning obyektiv yoritilishiga bevosita bogʻliq. Shuning uchun ham biz tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlarning haqqoniyligi va mafkuraviy mohiyatini tushunib yetishimiz zarur. Bunda biz yevropasentriзм va osiyosentriзм namoyondalarining uygʻonish davriga boʻlgan qarashlarining asl mohiyatini anglab yetmogʻimiz zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov. Yuksak maʼnaviyat – Yengilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat. 2008. – 108 B.
2. F. Sulaymonova. Sharq va Gʻarb. Oʻzbekiston. – T.: Oʻzbekiston. 1997. – 416 B.
3. S. Frederick. Lost enlightenment: Central Asia’s golden age from the Arab conquest to Tamerlane. Published by Princeton University Press, 2013. – 686 P.
4. E. W. Said. Orientalism. Vintage Books A Division of Random House. New York. 1978. – 378 P.

<sup>14</sup> I. A. Karimov. Yuksak maʼnaviyat – Yengilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat. 2008. B – 100

<sup>15</sup> Muniba Usman. The Scientific advancements in Islamic golden age. 2023. <https://scientiamag.org/the-scientific-advancements-in-islamic-golden-age/>

5. Great Empires of Central Asia, Part 5: The Eastern Renaissance By Ben Thomas Posted in History on December 9, 2017.
6. M.D. Rachel Hajar. The Air of History Part III: The Golden Age in Arab Islamic Medicine An Introduction. Heart Views. 2013.
7. M. Azab, R. Kandil. The Golden Age of Islam: Glimpses of Scientific Discovery and Invention (Khwarazm – Baghdad – Kufa).19 April 2022.